

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – BARCHAMIZNING BURCHIMIZ

Imomaliyev Jahongir

Andijon davlat chit tillari institute 312-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada korrupsiyaning jamiyatimiz ravnaqi, farovonligiga to'sqinlik qiluvchi illatlari hamda bunga qarshi kurashish uchun qilinishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar xususida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *korrupsiya, qarshi kurash, davlat ravnaqi, taraqqiyot, su'istemol.*

Korrupsiya (**lotincha:** *corrumpō* – aynish, poraga sotilish) – mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan **huquqlarni** shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste'mol qilishidan iborat amaliyot.

Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham Korrupsiya deyiladi. Korrupsiya davlat apparati va **parlament** faoliyatida ayniqsa, avj oladi.

Korrupsiya jamiyatni rivojlanishiga qarshi qaratilgan harakat sifatida har qanday jamiyat va davlatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. U ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni chuqurlashtirishga sabab bo'ladigan omil sifatida baholanadi.

Har bir davlat korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va obykti sifatida alohida olingan korrupsionerga emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf qilish va profilaktik oldini olish choralarida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston ham korrupsiyaga qarshi kurashishda o'zining amaliy va odilona siyosatiga, aniq yo'l xaritasiga ega. Bugun yurtimizda ushbu illatga qarshi kurashish borasida huquqiy va ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, maxsus vakolatli Agentlik tashkil etildi.

Bundan ikki yil avval dunyo miqyosida O'zbekiston Xalqaro Ochiq ma'lumotlar xartiyasiga a'zo bo'ldi. Mamlakatimiz Istanbul harakatlar dasturi, Global operativ tarmoq, Yevroosiyo va Egmont guruhlarini, boshqa ko'plab platformalarda samarali ishtirok etib kelyapti. G'arbiy va Markaziy Osiyo davlatlarining aktivlarni qaytarish tarmog'ining Kotibiyati vazifasini bajarmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimiz "Transparency International" indeksida 42 pog'onaga ko'tarildi. 2030-yilga qadar mazkur reytingdagi o'rnimizni yana 50 pog'onaga yaxshilash maqsadini ko'zlaganmiz. "Open Data Inventory" reytingida esa joriy yilda 30-o'ringa ko'tarildik.

Korrupsiya botqog'iga botgan amaldorlar jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'lib, umri xalqqa xiyonat qilish, yosh avlod ongini zaharlash bilan o'tishini endi keng jamoatchilik yaxshi tushunadi. Bu illatga qarshi kurash – toza vijdonli, oriyatli ziyolilarning qalb

amriga aylanmog'i lozim. Kunning dolzarb ishlaridan biri shu masala ustida kurashshishdur.

Bu muammoga qanday yechim bermogimiz lozim? Avvalo, biz o'zimizni isloh qilishdan boshlashimiz kerak, undan keyin esa atrof muhitimizdagi insonlarni birma bir bu narsadan uzoqlashtirmog'imiz zarur. Davlat tashkilotlariga va hususiy tashkilotlariga bir nechta (korrupsiyadan holi davlat amaldorlarini) komissiyasini jalb qilib bu holatlarga yechim berilmogi lozim. Bu "OG'UNI" rivojlanishiga o'z hissasini qo'shayotgan bazi bir insonlarni tegishli choralar bilan qonun dorasida jazolamog'i zarur.

Bugungi kunga kelib Allohga shukurlar bo'lsinki, korrupsiya kamayib va yo'q bo'lib ketayotganini korishimiz mumkin. Ayni damda O'zbekistonning har bir fuqarosidan bu ishlarga qarshi kurashni kuchaytirmog'i zarur deb bilaman. Bunday ishlar muqaddas dinimizda ham qoralangan va kundalik hayotimizda ham bu ish notog'ridir.

Korrupsiya – bu oddiy jinoyat emas, balki davlat va jamiyatning ildiziga qadar chuqur kirib boradigan xavfli illatdir. U nafaqat iqtisodiy yo'qotishlarga, balki ma'naviy inqirozga, ishonch tanqisligiga va yosh avlodda umidsizlikka olib keladi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurash faqat davlat idoralari zimmasidagi mas'uliyat emas, balki butun jamiyatning, har bir fuqaroning, ayniqsa yoshlarning halollik, poklik, vijdonlilik tamoyillariga sodiq bo'lishi orqali muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Bugun dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiyani yengish mumkin. Buning uchun kuchli siyosiy iroda, qonun ustuvorligi, mustaqil sud tizimi, erkin jurnalistika va faol fuqarolik jamiyati zarur. O'zbekiston ham aynan shu yo'nalishda faol qadamlar tashlamoqda – qonunchilik takomillashtirilmogda, ochiqlik va hisobdorlik prinsiplariga asoslangan davlat boshqaruvi tizimi shakllanmogda.

Shu bilan birga, muammoga faqat yuqoridan pastga qarab kurashish yetarli emas. Har bir maktabda, har bir oliygohda, har bir oilada bolalarga halollik, qonunlarga bo'ysunish, haqiqatparastlik singdirilishi kerak. Axir bugungi yosh – ertangi rahbar, shifokor, o'qituvchi yoki sudya. Ularning ongi va dunyoqarashi qanday shakllansa, ertangi jamiyat shunday bo'ladi.

Shu sabab, korrupsiyaga qarshi kurashda uch asosiy tamoyil doimo yodda tutilishi zarur: halollik madaniyati, faol fuqarolik pozitsiyasi va institutsional islohotlar. Bu tamoyillar orqali biz adolatli, taraqqiy etgan va fuqarolari o'z davlatiga ishonadigan jamiyatni barpo etishimiz mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurash – bu vaqt va sabr talab qiladigan jarayon. Ammo eng muhimi, biz har kuni bu kurashda o'zimizni halol tutish orqali kichik, ammo barqaror qadam tashlaymiz. Zero, har qanday katta o'zgarish aynan kichik o'zgarishlardan boshlanadi. Shu sabab, har birimiz bugundan boshlab o'z sohamizda adolat, shaffoflik va poklikni qadrlashni boshlashimiz zarur.

Ey yurtdoshim, bunday illatlardan uzoqroq yuring agar imkoningiz bo'lsa jon jahtingiz bilan kurashing. Unga qarshi qilinayotgan ish harakatlar o'z ifodasini topadi degan

European science international conference:

STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

umiddamiz. Shu bilan birgalikda bizga berilayotgan imkoniyatlarni ham etirof etishimiz orinli deb bilaman va bu uchun muhtaram prezidentimizga ham rahmat aytib qolaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Parliament.gov.uz
- 2.Uzbekistonmet.uz
- 3.Xalq So`zi Gazetasi

